

2-dars: O'LKAMIZ BOYLIKLARI

Dars maqsadlari:

- o'quvchilarga o'lcamiz boyliklari haqida tushuncha berish;
- ijodiy fikrlash doirasini kengaytirish, mayda qo'l motorikasini rivojlantirish;
- rang va shakl tushunchasini idrok qilish va rivojlantirish;
- ishchanlik, sabr-toqat va aniqlikni tarbiyalash.

Kerakli materiallar:

darslik, rangli qalamlar.

TEXNOLOGIK XARITA

1. Tashkiliy qism (5 minut)

O'qituvchi o'quvchilar bilan salomlashadi, davomatni tekshiradi.

2. Kirish qismi (5 minut)

O'qituvchi tomonidan o'tgan darsda o'tilgan mavzu bo'yicha savollar beriladi va yangi dars mavzusi e'lon qilinadi.

1. *Har qanday materialda biror narsani tasvirlash qobiliyati nima deyiladi?*

2. *Qadimgi odamlar qanday va nimalar bilan rasm chizganlar?*

3. *Kundalik hayotimizda tasviriy san'atni qayerlarda uchratishimiz mumkin?*

3. Amaliy ish (25 minut)

O'quvchilarga o'lcamiz boyliklari haqida tushuncha berishdan avval o'quvchilarga savollar beriladi:

— Qalam bilan chizilgan tasvirda nimalarni ko'ryapsiz? (Anor va qovoq). — Bu meva-sabzavotlar qachon pishadi va ularning qanday foydali tomonlari mavjud? (Kuzda, salomatlik uchun foydali). — Bizning o'lcamizda kuz faslida yana qanday sabzavot va mevalar pishadi? (O'quvchilar javob beradilar).

Keyin o'qituvchi rangli qalamlar bilan anor va qovoqni bosqichma-bosqich to'g'ri bo'yashni ko'rsatadi.

4. Dars yakunlari. Refleksiya (5 minut)

Dars oxirida o'quvchilarga chizgan rasmlarini baland ko'tarib ko'rsatishlarini taklif qilinadi. Agar chizgan tasvirlari yaxshi chiqqan bo'lsa, yuqoriga ko'taradilar, aksincha muammo bo'lgan bo'lsa, rasmlarini oldinda ushlab turishlari kerak.

Uy vazifasi sifatida o'quvchilar darsda o'rgangan usullaridan foydalaniib, hohlagan meva yoki sabzavotlarini rasm chizish va bo'yashni mashq qiladilar.